

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "YAXSHILIK " KONSEPTI

Turkiston yangi Innovatsiyalar universiteti,

Xorijiy til va adabiyoti mutaxassisligi , umumiy fanlar kafedrası,

*1-kurs talabasi **Yoshiyeva Kamola Amonovna***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, O'zbek va Ingliz tillaridagi "Yaxshilik" so'zining ifodalovchi so'zlarning kontekstda keladigan ma'nolari va har ikkala tildagi ishlatiladigan vaziyatlar yuzasidan tahlil qilinib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Yaxshilik, saxiylik, mehribonlik, aksincha, shafqatsizlik, vahshiylik, "Goodness", lingvistik.*

Аннотация: *В данной статье анализируются значения слов, выражающих слово «Добро» в узбекском и английском языках, а также ситуации, в которых они употребляются в обоих языках.*

Ключевые слова: *Добро, великодушие, доброта, наоборот, жестокость, брутальность, «добро», лингвистическое.*

Abstract: *This article analyzes the meanings of words expressing the word "Good" in the Uzbek and English languages, as well as the situations in which they are used in both languages.*

Key words: *Goodness, generosity, kindness, on the contrary, cruelty, brutality, "goodness," linguistic.*

Yaxshilik va yomonlik -axloq shunoslik fanining juft tushunchasi. Odamlarning xatti-harakatlariga, ijtimoiy hodisalarga berilgan ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalaydi. Yaxshilik -eng muhim fazilat bo'lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag'ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Shuning uchun ham "ezgu (yaxshi) fikr", "ezgu (yaxshi) so'z", "ezgu (yaxshi) amal" tushunchalari Avestodan tortib, barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o'rin egallagan. Yaxshilik insonning axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib,

unda kamtarlik, ochiqko'ngillilik, mardlik, halollik, insofililik, adolat, rostgo'ylik kabi fazilatlar mujassam bo'ladi. Yomonlik -yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illat. Yolg'onchilik, pastkashlik, munofikdik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo'ladi. Diniy nuqtai nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi. O'zbek tilida yaxshilik va yomonlik illati aks etgan bir qancha maqollar mavjud. Ular o'zbek xalqi madaniyatini yaqqol ifodasi hisoblanadi.

Yaxshilik va yomonlikni bilmaslik inson hayotining eng bezovta qiluvchi faktidir.

Yomonlik manbai behuda, yaxshilik manbai esa rahmdildir.

Yomonlikni sezmagan ahmoq, yaxshilikni sezmagan baxtsizdir.

Yuqoridagi misollardan shuni ko'rishimiz mumkinki, "yaxshilik" va "yovuzlik" konseptlarini ifodalovchi bu kabi aforizm va maqollarda insonni imkon qadar yaxshilik qilishga va bu qilgan ezguliklari insonlar qalbida boqiy yashashiga urg'u berilgan. Shuningdek, bu ezgu amallar va insonlarning qalbidagi ezgulik urug'lari insonning hayoti yaxshi kechishiga va uning ichkidunyosi sokinligiga o'z hissasini qo'shishi madh etilgan. Bundan farqli o'laroq, "yomonlik" konseptini o'zida jo qilgan. Yuqoridagi maqollarda biz yomon ishlarimiz va chirkin o'ylarimiz oqibatda yaxshilik olib kelmasligi va hayotimiz behalovatlikda o'tishini hamda qilgan qabih amallarimiz va o'ylarimiz o'zimizga qaytib kelishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ingliz milliy madaniyatida ham maqollarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki maqollar shu xalq vakillariga tegishli bo'lib, har bir maqol o'zida xalqning hayotini aks ettiradi. Quyida ingliz lisoniy tasvirida "yaxshilik" va "yovuzlikni" ifoda etuvchi bir qancha aforizm va maqollarga to'xtalib o'tamiz.

*It is not from reason that justice springs, but goodness is born of wisdom
-Adolat paydo bo'lishi aqldan emas, biroq ezgulik donolikdan tug'iladi.*

Muallif bu hikmatli so'zlari bilan yaxshilikni kelib chiqish sababi donolik va aql zakovat ekanligiga ishora qilmoqda.

Goodness is love in action, love with its hand to the plow, love with the burden on its back, love following his footsteps who went about continually doing good.

Bizga ma'lumki, hayotimizdagi har bir voqea ma'lum so'zlar, gaplar, katta va kichik matnlar orqali bayon qilinadi. Mana shunday tasvirlarni ifodalash uchun so'zlovchi aniq bir maqsadga tayangan holda o'z tushunchalarini vaziyatning munosabatiga ko'ra so'zlaydi. Albatta, bu vaziyat yaxshi yoki yomon munosabatga ega bo'lishi mumkin, va shu xususiyatiga ko'ra notiq tushunchalarini keng miqyosda ifodala berish qobiliyatiga egadir. Shuningdek, ushbu vaziyat boshqa millat vakillarida ham, jumladan Ingliz xalqlarida ham shunday desak mustasno bo'lmaydi. Negaki, har bir millat vakili o'z qarashlarini ma'lum bir ijtimoiy qolip asosida ifodalab berish qobiliyatiga ega desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shuningdek, "Yaxshilik va "Yomonlik" tilshunoslikda keng qamrovli tushunchadir. Tushuncha esa bu – narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi tafakkur mahsuli hisoblanadi. Mana shunday tushunchani kasb etgan "Yaxshilik" so'zining ifodalanishi ham ma'lum bir epik qoidalarni kasb etadi. Yaxshilikni ifodalovchi so'zlar ham o'z navbatida har ikkala tilda alohida guruhlanadi. Albatta, yaxshilik deganda inson ongiga keladigan ilk tushuncha bu chiroyli so'zlar va voqealardir. Ushbu yaxshilikka insonlar tomonidan yaxshi munosabat mavjud. Shuningdek tasdiqlashimiz joizki, bir so'zning ma'nosini ohang hattoki, tinish belgilari orqali ham o'zgartirib boshqa ma'no yetkazib berishimiz mumkin. Ushbu keltirilgan yaxshilik tushunchasiga mansub so'zlar o'zbek va ingliz tilida ifodalanish jihatdan farqlanadi. Ya'ni, O'zbek tilida ifodalangan yaxshilik tushunchasiga doir so'z aynan tarjimashunoslikda bir xil tarjima qilinmaydi. Negaki, bu tarjima umuman boshqa ma'noni anglatishi mumkin, va qo'shimcha sifatida aynan "Yaxshi" so'zi ham bitta emas bir nechta so'zlar orqali har ikkala tilda har xil ifodalanishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida yaxshi so'zini kimdir yuqori

natijalarga erishsa yoki chiroyli ammallar bajarsa, “Yaxshi” so’zi u insonga nisbatan qo’llaniladi. Ammo, Ingliz tilida bunday holat uchun faqat “Good” so’zi emas, boshqa ma’no beradigan atama orqali ifodalanishi mumkin, “Cool” so’zi bunga misol bo’loladi. O’zbek tilida “Yaxshilik” ni ifodalovchi so’zlar: - Yaxshi, ajoyib, zo’r, fantastik, zavqli, sevimli, mo’jiza, qoniqarli, a’lo, mukammal, Ingliz tilida “Yaxshilik” – “Goodness” ni ifodalovchi so’zlar: - Good, well, great, excellent, cool, fantastic, nice, lovely, cheerful, magic, amusing, enjoyable, agreeable, pleasant, pleasurable, super, fine. Ko’rib o’tganimizdek, yuqoridagi so’zlarning barchasi bir umumiy ma’noda ya’ni yaxshi so’zi ostida birlashadi. Biroq, har bir so’zning sezilarli darajada farqlari mavjud. Shuni ham aytib o’tish kerakki, o’zbek tilidagi “Yaxshi” so’zining sinonimlari Ingliz tilidagiga qaraganda, biroz kamroq natijani tashkil qiladi. Bundan tashqari, misol tariqasida kimdir o’z ishini yaxshi natijalar bilan tugatsa unga nisbatan “Yaxshilik” tushunchasining o’zbek tilida “A’lo” so’zi ishlatiladi. Ingliz tilida esa buni turlicha ko’rinishda berish mumkin. Ya’ni, “Great”, “Super” Buni quyidagi misolda yaqqol aksini ko’rishimiz mumkin.

- Salom do’stim, men o’qishga kirdim!

- A’lo natijaga erishibsan tabriklayman!

Ushbu, misol “Yaxshilik” tushunchasi ifodalanishining bir tasvirini o’z ichiga oladi.

-Hi friend, I have entered to institute!

-O great, congratulation!

Quyidagi misol esa ingliz tilida “Goodness” atamasining ifodalanishiga kiradi. Biz har ikkala tilda ham “Yaxshilik” ma’nosini beradigan ushbu misollardan tashqari boshqa so’zlarni keltirishimiz ham mumkin. Yuqorida ko’rib o’tganimizdek, ushbu so’zlar yaxshilik ma’nosidan tashqari kinoya, piching kabi munosabatlarda ham qo’llanilishi mumkin. Aynan bu ma’noni berish uchun aytilayotgan so’zni qo’shtirnoq ichida “Yaxshi” tarzida aytsak shunday ma’no kelib chiqadi va ohang ham shunga yarasha o’zgaradi. Ingliz tilida ham xuddi shunday munosabatda qo’llaniladi ya’ni “Good” kabi. “Yaxshilik” tushunchasi

keng miqyosda tahlil qilinadi hamda u o'z ichiga oladigan so'zlarning ham ma'lum miqyosda tilshunoslikda o'rni bor. Umuman olganda boshqa tushunchalar ham fanda o'z ko'lamiga ega. Yaxshilik munosabatini anglatadigan so'zlar har ikkala tilda vaziyat yuzasidan har xil ishlatiladi, ko'rib o'tganimizdek yaxshi ma'noda yoki piching kabi kinoya shaklida ham o'z ifodalanish xususiyatini ichiga qamrab oladi. Farqli jihatlari shundaki, ingliz tilida ma'lum holat uchun ishlatiladigan "Yaxshilik" tushunchasini beruvchi so'z aynan o'zbek tilida xuddi o'zidek tarjima qilinmasdan o'zbek tilining o'z qonun qoidalariga binoan shu ma'noni beruvchi so'zlarni keltirish mumkin. Albatta bu ham gapning ishlatilayotgan vaziyatiga bog'langan holda yuzaga keladi. Masalan, biz yaxshilik munosabatini eshitsak shunchaki "Yaxshi" degan so'zni ishlatamiz, ammo ingliz tilida yaxshi so'zining ekvevalenti ham ishlatilishi mumkin. Aynan "Good" emas "Okay" so'zi ham xuddi shu ma'noni beradi va qaysi so'zni ishlatish esa so'zlovchining xohishiga havola qilinadi. Biz ikki tilni taqqoslab "Yaxshilik" so'zini mushohada qilar ekanmiz, bu jarayonda farqli jihatlardan ko'ra o'xshashlikni ko'proq kuzatamiz. Bu esa, tillarda ishlatiladigan umumiy ma'noda xalqlar o'rtasida ishlatiladigan "Yaxshilik" – "Goodness" tushunchasi o'xshash va farqli jihatlarni o'z ichiga olgan holda fanda asosiy o'rinlarda turishidan dalolat beradi. Har bir tushuncha har qanday tilning ichki boyligi hisoblanadi va o'sha so'zning kelib chiqish hamda ishlatilish hollari ham alohida o'rin tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasida insonning turli histuyg'ularini ifodalovchi ko'p sonli birliklar aniqlangan. Yurak konsepti o'zining juda keng ma'naviy xususiyatlariga ega. Ikki til uchun ham umumiy bo'lgan ushbu tushunchadan – obraz va lingvistik ma'no yaxlitligini yaratishdan falsafiy jihatdan tahlil qilishimiz kerak. Chunki konsept nafaqat tilning, balki tafakkurning ham birligi hisoblanadi. Til hissiyotlarimiz va tuyg'ularimizni ifodalar ekan, yurak til sathida asrlar davomida madaniy va ma'naviy evrilishlar tufayli ikki tilning o'ziga xos linguo-kulturologik xususiyatlarini o'zida jamlagan, yurak ularning makonidir. Yurak konsepti bundan tashqari ishonch, hasrat,

yaqinlik, istak, siqilish, hayajon, keskin o'zgarish, ma'yuslik, dovyuraklik kabi tushunchalar doirasida ham kognitiv aloqalarni namoyon qiladi. Yurak konseptining o'zida qaramaqarshilik xususiyatini namoyon qilishi o'zbek va ingliz tili uchun analogik hisoblanadi. O'zbek tilida yurak konsepti ma'yuslik, ruhiy azob, qo'rqinch, bezovtalik, hasrat, intizorlik, siqilish, tashnalik kabi salbiy tushuncha va hissiyotlar bilan ifodalansa, ingliz tilida alam, qo'rqinch, hursandchilik, ishonch, mehribonlik, yaqinlik, hayajon, jasorat, kayfiyat va g'ayrat kabi salbiy va ijobiy belgilar va tushunchalar bilan kognitiv aloqadorligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Somatic phraseological expressions of Uzbek language: Dissertation.ph. Philological sciences.. -Tashkent, 1976.-p.196.
2. Shermuhammad Muhammedjon. "Yaxshi inson"
3. Mamatov A. Problems of formation of phraseology in Uzbek language,DDA. –Tashkent, 2000 - 49 p
4. Usmonova Sh.R. Somatic expressions in Uzbek and Turkish languages. Candidate of Philological sciences disser.- Tashkent1998.-p.162
5. Stoyanova, Inga. "Semantic Aspects of English Body Idioms." Diss. IRIM Chisinau, 2009 – 201 p